



**O'zbekiston Respublikasi
xalq ta'limi vazirligi**

**Namangan tuman xalq ta'limi
muassasalari faoliyatini metodik
ta'minlash va tashkil etish bo'limiga
qarashli 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
INAMOV AKRAMJONNING
o'qish fanidan bir soatlik**

Dars ishlanmasi

Namangan tumani

Ushbu dars ishlanmasi Namangan tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Inamov Arkamjon tomonidan tayyorlangan.

Muallif: Inamov Arkamjon – Namangan tuman 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Taqrizchi: M.Nasriddinova- Namangan tuman XTMFMT va TE bo'limi uslubchisi

Muharrir: B.Shamshibayev- Namangan tuman XTMFMT va TE bo'limi metodika kabineti mudiri

Mazkur dars ishlanmasi Namangan tuman 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinflar uslubiy birlashmasining 2013 yil _____oyidagi _____-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Dars mavzusi: KUZ MANZARASI VA MEHNAT
BO'LIMI. Anvar Obidjon. «SO'NGGI AXBOROT»
she`ri.

Darsning maqsadi:

- A) Ta'limiy: O'quvchilarga kuz faslidagi tabiat o'zgarishlari, tabiiy ofatlar, kishilar mehnati, yurtimizning iqtisodiy rivojlanishi haqida tushuncha berish.
- B) Tarbiyaviy: O'quvchilarga kattalar mehnatini qadrlash, kasblar haqida tushuncha berish. Vatanga muhabbat, mustaqil diyorimizga munosib vorislar bo'lishlarini uqtirish. Tabiatni sevish, uni asrab-avaylashga o'rgatish.
- D) Rivojlantiruvchi: Kelajakda ilimli, dono bolalar bo'lib ulg'ayishlariga undash. Vatan taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shishlarini tushuntirish.

Dars jihozi: Vatan mavzusidagi suratlar, yil fasllarini izohlovchi suratlar, meva va sabzavotlar, asl nusxasi va surati, savollar, lug'at so'zlar.

Dars turi: Aralash

Dars uslubi: Interfaol usullar, guruhlarda ishlash, klaster usuli, tezkor savolar usuli.

DARSNING BORISHI.

Dars o'quvchilar bilan salomlashishdan boshlanadi.

O'qituvchi:

-Barcha sog' va omonmi?

Hamma darsga tayyormi?

O'quvchilar:

Rahmat ustoz omonmiz,

Bizlar darsga tayyormiz.

O'quvchilardan hozir qanday darsligi, unda nimalarni o'rganishlari haqida so'raladi.

O'quvchilar javobi.

Bugungi darsimiz shiori: Ko'p o'qigan, ko'p bilar.

O'qituvchi: Biz qancha bilimli, dono bo'lib o'ssak
Vatanimiz kelajagi uchun shunchalik ko'p foyda keltiramiz.

-Vatan, ona so'zi naqadar laziz,

Sensan har narsadan mo'tabar aziz.

Hurimatingni saqlar har bir o'g'il qiz

Muqaddas, mo'tabar ulug' Vatanim,

Sharaf va shonlarga to'liq vatanim!

O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Bugungi darsimiz shu Vatanimizda kuz faslida bo'ladigan tabiat o'zgarishlari, kuzgi mehnatlar haqida bo'ladi. Bu darsimizni biz guruhlariga bo'lingan holda, musobaqa tarzida tashkil etamiz. O'quvchilarni 4 guruhga tanlovga qarab bo'lib olish.

1. Qish. 2. Bahor. 3. Yoz. 4. Kuz.

«Aqliy hujum» usuli asosida muzyorar savollar berish.

1. Nima uchun «Yoz» guruhi 3-bo'ldi?

2. Qaysi fasllar tabiati bir-biriga qarama-qarshi?

3. Qaysi fasllar tabiati o'xshash?

4. Sizni xaraakteringiz qaysi faslga o'xshaydi?

O'tgan mavzuni mustahkamlash.

4-topshiriq.

1. Sinf taxtasida kuzgi mevalarni tasvirlang.

2. Oq qog'ozsha o'z faslingiz tabiat hodisalarini yozing.

3. Shu faslga doir bir band she'r ayting.

4. Tezkor savollarga javob bering.

1-guruh «Qish»

1. Kuz oylariga qaysi oylar kiradi?

2. Mehrjon bayrami qachon nishonlanadi?

3. Kuzda qushlar hayotiga qanday o'zgarish bo'ladi?

4. Xalq O.I ga nimalar kiradi.

Topishmoq: Kuylagi qavat-qavat, tugmalari yo'q faqat.

(karam)

2-guruh. «Bahor»

1. Yilda necha fasl bor?

2. Navro'z bayrami qachon nishonlanadi?

3. Kuzda qanday mevalar pishadi?

4. Datifalar bosh qahramoni kim?

Topishmoq: Ustida yashil to'ni, yozu, qish yechmas uni

(archa)

3-guruh. «Yoz»

1. Oy nomlarini sanang
2. 1-oktyabr qanday bayram?
3. Qaysi sabzavotlar yer tagida pishadi?
4. Ertaklar qanday boshlanadi?

Topishmoq: Kichkina dekcha ichi to'la mixcha (anor)

4-guruh «Kuz»

1. Hafta kunlarini sanang.
2. A.Navoiy qachon tug'ilgan?
3. Qanday poliz ekinlarini bilasiz?
4. Xalq maqollaridan ayting.

Topishmoq. yer tagida oltin qoziq, u hammaga bo'lar oziq (sabzi)

O'tgan darsdagi «Oltin kuz» matnini 1 xat boshidan o'qitish, mazmunini so'zlatish.

«Kuz kelganda» she'rini yoddan aytirish. Mazmuni va qish bo'yi, xush bo'yi so'zlarini izohini so'rash.

Matn va she'r haqidagi o'quvchilar fikrini mustahkamlab, umumlashtirish.

Yozilgan fikr va chizilgan suratlarni baholash. Ularni javob va qilgan ishlariga qarab baholash.

O'z faslini izohlovchi she'rni tinglash.

Yangi mavzu bayoni: Anvar Obidjonning «SO'NGGI
AXBOROT» she'ri



Sinf taxtasidagi suratlar bilan tanishish, ular haqida suhbatlashish.

A.Obidjon bolalarning eng sevimli shoirlaridandir. U bolalarga atab juda ko'plab she'rlar yozgan. Uning ko'p she'rlari qatori «So'nggi axborot» she'ri ham o'qish kitobimizga kiritilgan. U juda ko'p meva va sabzavotlar tilidan she'rlar yozgan. Surat va she'rlaridan ko'rsatish.. shoir va yozuvchi haqida.

She'rni ifodali o'qib berish. Mazmunini o'quvchilardan so'rash, izohtalab so'zlarni izohlash.

Abjir- epchil, chaqqon

Kor-hol- voqea, hodisa, holat.

O'sal- og'ir ahvolda, o'lar holatda.


O'quvchilar bilan «Yomg'ir» dam olish daqiqasini o'tkazish. Buyruqlarni berish.

-havo bulut. -yomg'ir tezladi, tindi

-shamol asta esmoqda -shamol turdi

-yomg'ir asta boshladi - bulut tarqaldi.

O'quvchilar bilan birgalikda bajarish.



O'quvchilarga mavzuni bir banddan o'qitish, ifodali, ongli, tez va to'g'ri o'qishlariga e'tibor qaratib, rag'batlantirib, baholab borish.

Rasmlar asosida bog'bonlar mehnati, dehqonlar mehnati haqida, she'r mazmuni haqida fikr almashish.

O'quvchilarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun «Aqli ayiq» Egamnazar Sohibnazarovning she'rini o'qib berish.

Mazmuni asosida suhbatlashish.

-Nega ayiqni aqli kirdi?

-Olmaxon haqiqatdan ham aldadimi?

-Ayiqlar nega aldandi?

-Siz hayotda loqaydmi siz? savollariga birgalikda javob topish.

5-topshiriq. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Bu «Bir savolga, ko'p javob» o'yini asosida tashkil etiladi. Darslikdagi 4-savol guruhlariga ajratib beriladi. Shu savolga she'rdan va hayotdagi kuzatishlari asosida javob berishlari kerak.

1. Shamol nimalarga zarar yetkazdi?

2. Nima uchun qovunning boshi yorildi?

3. Nimalar zarar ko'rmadi? Nima uchun?

4. Bu kabi hodisalar qachon bo'ladi?

Savollarga to'liq kelishgan holda javob berishgach, ularni gulchalar bilan baholash.

Ular fikrlarini mustahkamlab darsni yakunlash. Uyga topshiriq «So'nggi axborot» she'rini yod olish, meva suratlarini chizi nomini yozib kelish.

Dars yakunida o'quvchilarni butun guruh bilan yiqqan gulchalarini sanash, g'olib guruhni aniqlash va rag'batlantirish.

Ko'p gulchalar to'plagan o'quvchini aniqlash va unga «O'qish fani 1 darajali a'lochisi» unvonini taqib rag'batlantirish, olqishlash.

Darsni yakunlash.

Vatan haqidagi she`r bilan yakunlash.

Shunga ishonchingni komil qil g'anim

Senga nasib etmas mening vatanim

Vatan deb janglarda o'lib ketsam gar

Seni ta`qib etar ruhim ham mening.